

---

## **PIYOZCHILIK MAHALLASI KO'RKAM MASKANGA AYLANIB, NAMUNAVIY XONADON VA KO'CHALAR SONI ORTIB BORMOQDA.**

Ayni kunlarda "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlari asosida "Piyozchilik" MFY infratuzilmasi yaxshilanmoqda. Mahallada obodonlashtirish, ichimlik suvi tarmog'ini yaxshilash, asfaltlashtirish, elektr hamda gaz ta'minotini yaxshilash, ijtimoiy soha ob'yektlarini mukammal ta'mirlash kabi ishlar olib borilmoqda.

Shu kunlarda hududda elektr tarmoqlarini yangilash, transformatorlarni ta'mirlash ishlari bajarilmoqda. Natijada qish kunlari aholini tashvishga solgan energiya manbalari bilan bog'liq masalalar o'z yechimini topmoqda.

"Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlari asosida "Piyozchilik" mahallasida jami 2 km yangi elektr tarmog'i tortildi. 5 ta transformator ta'mirlandi. Muddati o'tgan 225 dan ziyod simyog'och beton ustunlarga almashtirildi.

2024-03-12 15:07:49